

Yetakchilar saylovi

Saylanishga loyiq bo'lish insonning imkoniyati va iqtidoriga yanada aniqrog'i, uning kreativ, liderlik faoliyatiga borib bog'lanadi. 2018 yil 22 sentyabr kuni "Suv xo'jligini tashkil etish va boshqarish" fakultetiga qarashli B-108 o'quv xonasida fakultet dekani O.R.Kucharov, yoshlardan bilan ishslash bo'yicha dekan o'rinnbosari J.R.Turdiev va institut "Yoshlardagi ittifoqi" boshlang'ich tashkiloti yetakchisi A.A.Berdimurodov hamda fakultetda tahsil olayotgan akademik guruqlar "Yoshlardagi ittifoqi" yetakchilari va talaba yoshlarning 57 nafari ishtirokida "Suv xo'jligini tashkil etish va boshqarish" fakultetining Yoshlardagi hisobot-saylovi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda fakultet dekani O.Kucharov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyulda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlardagi ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni va 2017 yil 18 iyuldagagi "O'zbekiston yoshlardagi ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori mazmun - mohiyati, shuningdek, o'tgan o'quv yilida fakultetda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida o'z fikrlarini bildirib o'tdi.

Yig'ilishda shuningdek, institut "Yoshlardagi ittifoqi" boshlang'ich tashkiloti yetakchisi A.Berdimurodov fakultet yetakchiligi vazifasini bajarish uchun 3 nafar nomzodlar ro'yxatini o'qib eshittirib, ishtirokchilarga muvaffaqiyat tiladi. Shundan so'ng nomzodlarga ochiq ovoz berishlarini ta'kidlab o'tdi. Saylov natijasiga ko'ra, fakultetning 2-kurs talabasi Iskandarov Xaytboy Xasanbaevich fakultet "Yoshlardagi ittifoqi" yetakchisi etib saylandi.



"SXTE va B" fakulteti dekani o'rinnbosari J.Turdiev axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov